

**MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARDA O'YIN
FAOLIYATINING O'RNI**

Xayitgul Nesibovna Muzaffarova

Maxsus pedagogika kafedrasi (PhD)

Abdulhamidova Nazokat

JDPU IV- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqlada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nuqsonni bartaraf etishga qaratilgan o'yin turlari va shu o'yin faoliyati orqali idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish va boshqaruv jarayonlarini shakllantirishga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Annotation: The article describes the types of games aimed at eliminating the defect in preschool children who stutter, and through these game activities, opinions on the development of perception, memory, thinking, interest in knowledge and the formation of management processes.

Duduqlanuvchi qaysi yoshdagi bo'lishiga qaramay, hoh u maktabgacha yosh, o'smir hamda kattalarning psixofiziologik xususiyatlari logopeddan "Bog'chada o'qitish va tarbiyalash dasturi" va o'yin faoliyati; ikkinchidan maktab dasturi va o'quv faoliyati, uchinchidan turli xil mehnat faoliyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Ye.F.Rau logopedik mashg'ulotlar vazifasini quyidagicha tasavvur etadi, "duduqlanuvchi bolalar nutqini yuklamadan sistemali rejali mashg'ulotlar yo'li bilan xalos qilish, shuningdek, noto'g'ri talaffuzni bartaraf etish va aniq, to'g'ri artikulyatsiyani tarbiyalash". Duduqlanuvchi bolalar nutqini tarbiyalash bo'yicha olib boriladigan barcha mashg'ulotlar murakkablashib boruvchi 3 bosqichga ega:

Birinchi bosqichda barcha mashqlar logoped bilan birgalikdagi nutq va aks ettirilgan nutqni tarbiyalash uchun maxsus ishlar olib boriladi.

Ikkinchi bosqichda bolalar rasmlarni savollar asosida ta'riflab berish, berilgan mavzuga oid yoki seriyali raqamlar asosida mustaqil hikoya tuzish, logoped o'qib bergen hikoyani qayta hikoya qilib berishga o'rgatib boriladi.

Uchunchi, yakunlovchi bosqichda bolalarga egallagan malakalarini o'yin, suhbat, mashg'ulot va boshqa bolalar hayotiy daqiqalarida do'stlari, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot davomida mustahkamlash imkoniyati taklif etiladi.

Duduqlanuvchi bolalarda og'zaki ko'rsatmalar mos ravishda o'quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi. Bolalar aniq va umumiyligi savollarga javob berishga o'rganadilar, logoped, tarbiyachining talabiga ko'ra qisqa va keng javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda atrofadgilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma'noga mos ravishda javob beradilar. Mashg'ulotda ot, sifat va tilning boshqa bo'laklarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash malakalari mustahkamlanadi. Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash qobiliyatlari, dialog vaqtida faol ishtirot etish lozim

bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. O'rtoqlaridan ilgarilab ketmay va ulardan ortda ham qolmasdan ishni bir vaqtida boshlash va yakunlash ko'nikmasi shakllanadi, faoliyatning normal tempi, harakatchanligi, kelishgan holda, ketma-ketlikda ishslash odati, boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish, faoliyat jarayonining ikki turi orasida ham diqqatni jamlay va taqsimlay olish, material va (qog'ozni) ratsional sarflash, qo'llanmalar, mehnat qurollaridan to'gri foydalana olishlar shakllantiriladi. Ijobiy shaxsiy sifatlarni va umumiy va nutqiy xatti-harakat malakalarini shakllantirish, shuningdek, mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, nafaqat jamoada, balki yakka tarzda o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, o'yin qoidalariga mos ravishda o'z istaklarini bo'ysundirish yoki chegaralashga, irodalilik sifatlarini tarbiyalashga; o'z-o'zini nazorat etish, o'z xatti-harakatlariga javobgarlik, diqqatni jamlash, o'yinda faol bo'lish va bir vaqtning o'zida kerak bo'lsa, o'zining hissiyotlari va xohishlarini ham nazorat qila bilishga katta e'tibor beriladi. O'yin jarayonida nutqnni korreksiyalash duduqlanuvchi bolalarda ommaviy bolalar bog'chasidagi bolalar singari, mehnatga bo'lgan qiziqish va muhabbatni rivojlantirish, ularni mehnat topshiriqlarini harakatchan va puxta bajarishga o'rgatish, mehnat natijalariga erishishga bo'lgan intilishni, barcha boallar bilan bir qatorda yonma-yon tarzda mehnat faoliyatida ishtirok etish tayyorgarligini tarbiyalash lozim. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarda yengil va oson bo'lgan mehnat turlari malakalarini, kattalar va o'rtoqlarining mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi va bir vaqtning o'zida mehnat qurollari haqidagi bilimlar va ulardan foydalana olish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Bolalarni barcha harakatlarni ortiqcha shovqinsiz bajarish, kattalar nutqini va o'rtoqlarining javoblarini tinglash, savol berilganda javob qaytarish va o'rtoqlarini gaplarini bo'lmaslikni o'rgatish lozim. Kattalar nutqiga alohida e'tibor beriladi. Ularning nutqi sokin bo'lishi, savollar bolaning savoli va javobi ortsida to'xtamlarga amal qilgan holda aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak. Javobni o'ylab olish uchun vaqt berish, normal tempda so'zlash, shaxsiy nuqtni sekinlantirmaslik va bolalardan nutqni sekinlantirmaslikni talab qilmaslik kerak bo'ladi. Bolaning kun tartibida duduqlanishsiz to'g'ri nutqiy muloqotni tashkil etish uchun qator qulay vaqtlar bo'lib, ular xususida bolalar bilan shuhbatni tashkil etish mumkin.

Biz logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida albatta maxsus metodikalarga asoslangan o'yin usullari, turli xil o'yin turlaridan foydalanamiz. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ham eng sevimli mashg'ulot bu o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin bolalar uchun shunchaki ermak vositasi bo'lib qolmasdan, ularda qobiliyatlarini rivojlantirishga, mashq qildirishga yordam beradigan muhim vosita shakli hamdir. Bolalar o'yin jarayonida atrof-muhittdagi hayot va tabiat o'rtasidagi hodisalar bilan ham tanishadi, narsa buyumlarni o'ziga xos tomonlarini ham bilib oladilar. O'yin jarayonida bolalar sakraydi, yuguradi, yuradi, o'rmalaydi, buyumlarni irg'itadi, natijada ularni muskullari rivojlanadi va sezgi taktil, tezkorliklari ham o'sib, rivojlanib boradi. Bolalar o'yin vaqtida do'stlari bilan, o'zidan kattalar bilan, qo'lidagi o'yinchoqlari bilan gaplashadi, jamoa tarzida o'yin o'ynashganida esa har bir bolaning nima ish qilishi kerakligini birgalikda muhokama

qilib olishadi. Bu o'yinlar orqali umumiy va nutqiy xatti-harakatlardagi duduqlanish korreksiyalarini amalga oshiramiz. Korreksion ishlarni biz duduqlanuvchi bolalar bilan birga nutqiy nafasni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlardan boshlaymiz. Chunki nafas harakatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, nafas olishni me'yoriy holatga keltirsakgina, duduqlanuvchi bolalarda umumiy va nutqiy harakatlarini to'g'ri shakllantira olishimiz mumkin bo'ladi. Bola nafas harakatlarini to'g'ri taqsimlay olmadimi, demak unda talaffuz kamchiliklari yuzaga kelaveradi. Nutqiy nafasni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlarning maqsadi ham bolalarda to'g'ri talaffuz malakalarini shakllantirish, to'xtalishlarsiz ravon nutqni yo'lga qo'yishdan iborat. Biz aytdik turli xil o'yinlar va mashqlar nafas olishnni rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun nima kerak? To'g'ri (fiziologik) nafas olish bolaga asta-sekin hotirjam, ravon gapirishni o'ganishga yordam beradi. Nafasni rivojlantirish uchun ba'zi mashqlar ularda to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishga yordam beradi. Bolalarda to'g'ri nutq nafasini rivojlantirish uchun esa, nutq terapevti ya'nikи logoped va tarbiyachi hamkorlikda mashg'ulot olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muzaffarova X.N. Pedagogical possibilities of organizing professional practice of students of preschool speech therapy// International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain: March 27th, 2022. conferencezone.org. 312—314
2. Muzaffarva X.N. Maktbgacha logopedyani o'qitish metodikasi bo'yicha didaktik va motivatsion imkoniyatlarni takomillashtirish modeli// J. Bola va zamon — 2022. — №3. — B. 19— 23.
3. Muzaffarova X.N. Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondoshish usullari // J. Tafakkur ziyosi — 2020. — №1. — B. 153-155.
4. Muzaffarova X.N. Maktabgacha logopedyani o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalari// J. O'zbekiston milliy universiteti xabarları — 2022. — № 8/1—B.152-156
5. Muzaffarova X.N. Maktabgacha logopedyani o'qitish metodikasida logoped o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari//J. "Mug'allim həm yzliksiz bilimlendirir" Nəkis" —2022, —№4/1. — B. 119—124
6. Muzaffarova X.N. Maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlar jarayonida o'yin faoliyatidan foydalanishning pedagogik ahamiyati// Maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lim tarbiyasini takomillashtirish muammo va yechimlari: Respublika ilmiy amaliy anjumanining maqolalar to'plami. —Jizzax, 2016. 145-149 b
7. Muzaffarova X.N. Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lim mussasalariga tadbiq etish // Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari Ibo'lim. Nekis, — 2018. 127-130 b
8. Muzaffarova X.N. Ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati// Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika

ilmiy-amaliy anjumani materiallari —Jizzax, 2021-№ 3. 99-103 b

9. Muzaffarova X.N., O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari // J. Bola va zamon — 2019. —№2. B. 57- 62

10.Muzaffarova X.N. O'zbekistonda bakalavr pedagoglarni tayyorlashning innovatsion modellari // Psycho – pedagogical problems of a personality and social interaction : materials of the VII inter national scientific conference: Tez. dokl. — T., 2016. 151-153 b

11. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya., O'quv qo'llanma//:Jizzax: «Ruhsora servis» nashryoti, 2021, 4-20 b.

12.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

13.[https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:kNdYIx-mwKoC.](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:kNdYIx-mwKoC)

14.[https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:YOfwf2qJgpHMC.](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:YOfwf2qJgpHMC)

15.[https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC.](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasA AAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)